**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**“XOR PARTITURASINI O’QISH”**

*Fanidan*

# O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim soxasi: 100 000 – Gumanitar

Ta’lim sohasi: 150 000 – San’at
Ta’lim yo‘nalishi: 5810500 – Xalq ijodiyoti(“Vokal jamoalari tashkilotchisi”)

**TOSHKENT – 2015**

# O'QUV -USLUBIY MAJMUA

"XOR PARTITURASINI O'QISh " fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unda mazkur fanning namunaviy va ishchi dasturlari, yakka mashg'ulotlarning mazmuni, fan bo'yicha glossariy, baholash mezonlari, ta'lim texnologiyalari, o'quv materiallari,darslik va adabiyotlar ro'yxati hamda majmuaga taalluqli barcha materiallarning elektron shakllari jamlangan.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Xalq ijodiyoti (turlar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.


**Tuzuvchi:**

**M.X.Xodjayeva** - " Vokal" kafedrasi katta o`qituvchisi

**Taqrizchilar:**

Sh.Yo.Yormatov - O'z DK , xor dirijerligl kafedrasi professori

## O‘QUV- USLUBIY MAJMUA MUNDARIJASI

1. O’quv dasturi. ……………………………………………………………........4

2. Ishchi dasturi. ……………………………………………………………......11

3. Ta’lim texnalogiyasi ……………………………………………………........24

4.Yakka mashg‘ulotlar mazmuni.....................................................................27

5. Tayanch tushunchalar…………………………………………….............30

6. Kollokvium uchun savollar........................................................................31

7. Glossariy ……………………………………………………..………...32

8. Mustaqil ish uchun korsatmalar………………………………………..33

9. Referat mavzulari ………………………………………………….......34

10. Adabiyotlar royxati ……………………………………………….......34

11. Horijiy manbalar…………………………………………………… .35

12.O’quv materiali…………………………………………………… 36

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

| | |
|---|---|
| Ro‘yxatga olindi: | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining |
| № BD-5151600-4-03 | 201__ yil “___” – sonli buyrug‘i |
| 201__ yil ________ | bilan tasdiqlangan |

# XOR PARTITURASINI O’QISH
# FANINING
# O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100 000 - Gumanitar soha |
| Ta’lim sohasi: | 150 000 - San’at |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 5151600–“Xalq ijodiyoti” (Vokal jamoalariga rahbarlik)) |

**Toshkent – 201_**

Fanning o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengashning 201__ yil “___” dagi “___” – sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan.

Fanning o‘quv dasturi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat insitutida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

M.X Xodjayeva - O’zDSMI, “Vokal” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

Q. T. Mirzayev - O’zDSMI, “Vokal” kafedrasi professori.

Sh.Yormatov O’z.DK, “Xor dirijorligi” kafedrasi professori.

Fanning o‘quv dasturi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat insituti ilmiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201__ yil “__”_________dagi “__” – sonli bayonnoma).

## Kirish

Vokal jamoalari uchun malakali rahbarlarni tayyorlashda “ Xor partiturasini o‘qish” fani muhim ahamiyat kasb etadi.Ushbu ta’lim sohasi bo‘yicha talaba yoshlarda kasbiy bilimlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi mazkur fan dirijyor-xormeyster ijodiy faoliyatining ajralmas qismini tashkil qiladi.

Partitura yozuvi savodxonligi, xor partiturasi janrlari nazariyasi haqidagi bilimlarni hamda partitura ijrochiligi ko‘nikmalarini o‘zlashtirish talabalarning kelajakda xor jamoalari ishini tashkil etishi va boshqarishida, ularda dirijyor-xormeysterlik malakasining oshishida o‘z ifodasini topadi.

Xor partiturasini o‘rganishda fortepiano chalish, vertikal va gorizontal ovozlar yo‘nalishlarini turli usullarda kuylash, bunda bir vaqtda kuylaydigan ovozlarni alohida eshita olish,partitura xususiyatlarini tahliliy o‘rganish talabaning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini keng ko‘lamda rivojlantiradi.

## Fanning maqsad va vazifalari

«Xor partiturasini o‘qish» fanning **maqsad**i - a`kapella, cholg`u jo‘rligida ijro etiladigan xilma-xil xor partituralarini har tomonlama o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Xor partituralarini o‘rganishga fortepiano chalish, ovozlarda vertikal va gorizontal jo‘rlik, xor partiyalarini, ya’ni bir vaqtda kuylanadigan alohida ovozlarni eshita olish va to‘g`rilash, xor asari xususiyatlarini keng tahliliy o‘rganish va g`oyaviy-badiiy obrazlarni aniqlash kabilar kiradi.

Fan maqsadlaridan kelib chiqib, ko‘p ovozli xor asarlarini eshitish, ularni qiyoslash,vokal-xor jihatdan tahlil qilish,fortepianoda partituralarni ijro eta olishni rivojlantirish **vazifasi** qo‘yiladi. Xor partituralarini o‘qish talabalarning xor va xor uchun yozilgan yangi asarlarni o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

## Fan bo‘yicha talabalarning tasavvuri, bilimi, ko‘nikma va malakasiga quyiladigan talablar

«Xor partiturasini o‘qish» fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr:

- Xor partituralari,ularning tarixiy rivojlanish yo‘llari, musiqiy kalit va uning turlari, akkolada, xor partiturasi yozuvi turlari;
- xor asarlari partiturasida ovoz partiyalarining joylashuvi( soprano,alt,tenor va bas);
- bolalar, ayollar,erkaklar, aralash xor turlarini va ko‘rinishlari;
- bir turdagi xor asarlari partiturasi, aralash xor uchun bir va bir necha qatorli asar partituralari yozuvlari;
- transpozitsiya, uning turlari, asarlarning vokal- xor tahlili haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

Fanni amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr quyidagi bilimlarga ega bo‘lishi:

Talabalar fan mazmunini o’zlashtirish jarayonida quyidagi bilimlarga :

- partitura yozuvining vujudga kelishi, xor asari partiturasida ovoz partiyalarining joylashuvi;
- xor asari partiturasida kalitlar(skripra,alt,tenor va bas kalitlari);
- xor ovozlari (soprano,alt,tenor,bas) partiyalarining diapozoni,tessituraviy xususiyatlarini va ularning asarlarda aks etishini;
- o‘zbek, jahon kompozitorlarining turli xildagi xor asarlari namunalarini bilishlari kerak.

Ijro repertuarini tanlash, asarlarni tahlil etish, olingan nazariy bilimlarni amalda qo‘llay bilishi lozim. Hamda:

- bir, ikki,uch va to‘rt qatorli bir turdagi xor asarlarini fortepianoda ijro eta olishi;
- bir, ikki,uch va to‘rt qatorli aralash xor uchun asarlarni fortepianoda ijro eta olishi;
- asarlarni vokal- xor tahlil qila olish ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak.

## Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

“Xor partiturasini o‘qish” fani asosiy mutaxassislik fanlaridan bo‘lib, 6-7 semestrlarda o‘qitiladi. Ushbu fan xor sinfi, dirijyorlik, dirijyorlik amaliyoti, vokal ansambli, xor solfedjiosi kabi fanlar bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganilib, chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi.

## Faning ilm - fan va san’at sohasidagi o’rni

Xor partiturasini o‘qish fani musiqa san’atining xor janri nazariyasi va amaliyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu fan musiqa ta’limida zamonaviy ko‘p ovozli musiqani idrok va ijro eta oladigan, yosh barkamol avlodni ma’naviy-madaniy tarbiyasiga hissa qo‘sha oladigan bo‘lajak dirijer-xormeysterlar tayyorgarligiga xizmat qiladi.

## Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Xor partiturasini o‘qish” fanini o‘rganish jarayonida o‘qitishning quyidagi yangi texnologiyalaridan foydalanish ustoz va shogirdga birday samaralidir: kompyuter, audio-video vositalarni qj’llfsh

., yangi chet el va o‘zbek kompozitorlarining xor asarlarni doimiy tinglash, asarlarni mazmunan va musiqiy tahlil etish, hisobot kontsertlari o‘tkazish.

## ASOSIY QISM: Fanga kirish

Asosiy qismda fanning mazmuni mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. "Xor partiturasini o'qish" fanining mavzuiy mazmun-mohiyati, asosiy tushunchalari va ish mazmuni ochib berilgan. Bunda talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan fan bo'yicha malaka va ko'nikmalar to'la qamrab olingan.

### Fanning nazariy mashg`ulotlari mazmuni

Fan bo'yicha nazariy mashg'ulotlar na'munaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

## Xor partituralari va ularning xususiyati

Partitura yozovining vujudga kelishi. Xor partiturasini o'qish fani tushunchalari.Xor asari partiturasida ovoz partiyalarining joylashuvi. Xor asari partiturasida kalitlar(skripra,alt,tenor va bas kalitlari).

### Xor asari partiturasi yozuvining turlari

Bir turdagi xor asarlari**.** Aralash turdagi xor asarlari. Xor asari partiturasida matnning o'rni. Bir qatorli partiturada yoziladigan matnlar. Ikki qatorli partiturada yoziladigan matnlar. Uch qatorli partiturada yoziladigan matnlar.To'rt qatorli partiturada yoziladigan matnlar.

### Xor partiturasini fortepianoda chalish xususiyatlari

Ko'z yugurtirib o'qish. Xor kuylashi bilan birga ko'z yugurtirib o'qish. Fortepiano oldida partitura o'qish. Partiturani "ichida" o'qish. Bir ovozli partitura. Ikki ovozli partitura. Uch ovozli partitura. To'rt ovozli partitura. 1

### Xor partiturasini o'rganish usullari.

Xor partituralarida adabiy matnning yozilishi. Xor partiturasidagi belgilanishlar. Bir ovozli partitura. Ikki ovozli partitura. Uch ovozli partitura. To'rt ovozli partitura. Cqolg'u jo'rligida xor partituralarini ijro etish. Xor partiyalari orasidagi tessituraviy va dinamik munosabatlar tahlili.

### Transpozitsiyalash. Pedallashtirish

Transpozitsiya qilish usullari. Xor bilan ishlash jarayonida transpozitsiyadan foydalanish shakllari. Pedalizatsiya qo'llashning zarurligini ko'rsatuvchi holatlar.Transpozitsiyadagi cheklanishlar.

### Xor asari partiturasini chalish jarayonida ishlatilishi.

O'ng qo'lning xor asari partiturasini chalish jarayonida ishlatilishi. Chap qo'lning xor asari partiturasini chalish jarayonida ishlatilishi.Xor asari partiturasini chalish va ijro etishda dinamik belgilarning ahamiyati.Xor asari partiturasini chalish jarayonida pedalning ishlatilishi**.**

## **Vokal-xor partituralarining tahlili**.

Ijrochilar tarkibini, xorning turi va ko‘rinishini aniqlash. Xor partiyalari orasidagi tessitura, dinamik va tembr munosabatlarini aniqlash. Intonatsion qiyinchiliklarni, musiqiy jumlalar va she’riy matnlarni aniqlash.

## Yakka mashg’ulotlar uchun asarlarning taxminiy royxati

Talaba yakka mashg‘ulotlarda jo‘rsiz va jo‘rli xor asarlari partiturasini fortepianoda ijro etgan holda alohida ovozlarini kuylaydi,vokal-xor tahlilini qiladi. Yakka mashg‘ulotlarda o‘rganiladigan xor asarlar quyidagi prinsiplar asosida tanlab olinadi : barcha xor akapella asarlari xor partiturasini o‘qish fani malakalarini(bir,ikki.uch va to‘rt qatorli partituranі o‘qish,yondosh tonalliklarga transpozitsiya qilish, sol,bas kalitlarida nota yozuvini o‘qish) hosil qiluvchi, fan mohiyatini yuzaga chiqaruvchi bo‘lishi lozim.

## Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Fan bo‘yicha laboratoriya ishlari namunaviy o‘quv rejada ko‘zda tutilmagan

## Kurs ishini tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

Fan bo‘yicha kurs ishi namunaviy o‘quv rejasida rejalashtirilmagan

## Mustaqil ta`limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta’lim mazmuni shundan iboratki, talabalar o‘zlari tanlagan kasblari bo‘yicha chop etilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, mutaxassis va mashhur xonandalarning ilmiy maqolalarini o‘qishlari va u yerdagi ilg‘or fikr-mulohazalarni va tajribalarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq. Talaba o‘rgana boshlagan qo‘shig‘ining muallifi, ijodiy faoliyati uning o‘ziga xos jihatlari va o‘zbek milliy musiqa madaniyatida tutgan o‘rni haqida o‘qib, bilib olishi zarur.

Xor partiturasi bilan tanishib borish, badiiy jamoalar faoliyati bilan yaqindan tanishish, nota yozuvi ustida ishlash.

## Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

**1.** 1,2,3 va undan ko‘p ovozli a’kapella xor partituralarini o‘qish uslubi haqida.
**2.** Operadagi xor saxnalari partiturasini o‘qish uslubi.
**3.** Xor uchun yozilgan jo‘rli asarlar partiturasini o‘qish uslubi haqida.

## Dasturning informatsion-metodik ta’minoti

**Xor partiturasini o'qish** fanini o'qitishda multemedia jihozlaridan foydalanib, mavzular bo'yicha ishlab chiqilgan POWER POINT formatdagi jadvallardan, kompyuter, audio va video jihozlaridan, dioproyektor va CD – DVD yozuvlardan foydalaniladi. Shuningdek, yakka mashg'ulotlar davomida ta'lim menejmenti funksiyalari, maqsad va vazifalarini tavsiflovchi tarqatma materialar, slaydlar hamda ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Bundan tashqari quyidagilar ham qo'llaniladi.

- didaktik materiallar tayyorlash;
- tarmoqlar metodi;
- audio va video jihozlari;
- musiqiy-badiiy taxlil metodi
- internet tarmog'i saytlari.
- taqqoslash-qiyoslash metodi

## Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

### Asosiy adabiyotlar

1. Sq.Ro'ziyev. "Xorshunoslik" G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,T..1993.y. o`quv qo'llanma
2.Q.T.Mirzayev. "Kichik bolalar xori bilan ishlash metodikasi",RNMTS.,T,1990 yo`quv qo'llanma
3. M.Azimov. "Proizvedeniya narodov Sredney Azii i Kazaxstana" v obrabotke B.Umidjanova.1 i2 chasti.T., 1982y. o`quv qo'llanma

### Qo'shimcha adabiyotlar

I.Poltavtsev. «Kurs chteniya xorovix partitur», ch.1., M.,1963y. o`quv qo'llanma
2.Sharafiyeva. "Xor sinfi", Musiqa T.2005y. o`quv qo'llanma

### Internet saytlari

1. www.artist.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.edu.uz
4. www.jazz.ru
5. www.atmuzik.ru
6. www. universalia. nov. ru / instruments.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

| | |
|---|---|
| Ro‘yxatga olindi: | “TASDIQLAYMAN”<br>O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor |
| №_________________ | ___________________________ |
| 201_ y. « __ »_________ | “___” _________201_ yil |

# XOR PARTITURASINI O’QISH

# FANINING

# ISHCHI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 –gumanitar soha

Ta’lim sohasi: 150 0000 – San’at

Ta’lim yo‘nalishi: 5151600 – Xalq ijodiyoti (“Vokal jamoalariga rahbarlik ” turi uchun)

**Toshkent – 2015**

Fanning ishchi o‘quv dasturi o‘quv, ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

M.X Xodjayeva - O’zDSMI, “Vokal” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

**Taqrizchilar:**
Q. T. Mirzayev - O’zDSMI, “Vokal” kafedrasi professori.
Sh. Yo. Yormatov –O’zbekiston davlat Konservatoriyasi professori.

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Vokal” kafedrasining 201_ yil “___” avgustdagi “___” - son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri: ___________ Pirmatov SH.T.**

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Xalq ijodiyoti” fakultet kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2015 yil __ avgustdagi __-sonli bayonnoma).

**Fakultet kengashi raisi: ____________ Jumayev S.S.**

**Kelishildi: O‘quv bo‘limi boshlig‘i _____________O‘rozov A.N.**

## KIRISH

Vokal jamoalari uchun malakali rahbarlarni tayyorlashda " Xor partiturasini o‘qish" fani muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ixtisoslik bo‘yicha talaba yoshlarda kasbiy bilimlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi mazkur fan dirijyor-xormeyster ijodiy faoliyatining ajralmas qismini tashkil qiladi.

Partitura yozuvi savodxonligi, xor partiturasi janrlari nazariyasi haqidagi bilimlarni hamda partitura ijrochiligi ko‘nikmalarini o‘zlashtirish talabalarning kelajakda xor jamoalari ishini tashkil etishi va boshqarishida, ularda dirijyor-xormeysterlik malakasining oshishida o‘z ifodasini topadi.

Xor partiturasini o‘rganishda fortepiano chalish, vertikal va gorizontal ovozlar yo‘nalishlarini turli usullarda kuylash,bunda bir vaqtda kuylaydigan ovozlarni alohida eshita olish,partitura xususiyatlarini tahliliy o‘rganish talabaning musiqiy-ijodiy qobiliyatlarini keng ko‘lamda rivojlantiradi.

## Fanning asosiy maqsadi va vazifasi

« Xor partiturasini o‘qish » fanning **maqsad**i - a`kapella, cholg`u jo‘rligida ijro etiladigan xilma-xil partituralarni har tomonlama o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Xor partituralarini o‘rganishga fortepiano chalish, ovozlarda vertikal va gorizontal jo‘rlik, xor partiyalarini, ya’ni bir vaqtda kuylanadigan alohida ovozlarni eshita olish va to‘g`rilash, xor asari xususiyatlarini keng tahliliy o‘rganish va g`oyaviy-badiiy obrazlarni aniqlash kabilar kiradi.

Fan maqsadlaridan kelib chiqib, ko‘p ovozli xor asarlarini eshitish, ularni qiyoslash,vokal-xor jihatdan tahlil qilish,fortepianoda partituralarni ijro eta olishni rivojlantirish **vazifasi** qo‘yiladi. Xor partituralarini o‘qish talabalarning xor va xor uchun yozilgan yangi asarlarni o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

## Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga quyiladigan talablar

«Xor partiturasini o‘qish» fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- ko‘povozli ansambllar ijrochiligi , vokal ansambli turlari;
- ovoz apparati tuzilishi ;
- qo‘shiqchilik ovozlari va ularning uyg`unligi haqida ***tasavvurga ega bo‘lish lozimi.***

Talabalar fan mazmunini ozlashtirish jarayonida :

- yakka va jamoaviy ijrochilik usullarini ko‘rsata olishi;
- ijro repertuarini tanlash, asarlarni tahlil etish, olingan nazariy **bilimlarni amalda qo‘llay bilishi lozim.** Hamda

-ko‘povozli musiqa ijrochiligi san’ati namunalarini;
- kompozitorlik ijodiyotidan vokal ansambl asarlarini ***;***
- o‘rganilgan vokal ansamblarini ifodali ijro eta olish;
- asarlarni musiqiy- vokal tahlil qila olish ***konikmalariga ega bolishi kerak***.

## Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

"Xor partiturasini o‘qish" fani asosiy mutaxassislik fanlaridan bo‘lib, 1-8

semestrlarda o‘qitiladi. Ushbu fan xor sinfi, dirijyorlik, dirijyorlik amaliyoti, vokal ansambli, xor solfedjiosi kabi fanlar bilan bevosita bog‘liq holda o‘rganilib, chuqur bilim va ko‘nkmalarga ega bo‘lish talab etiladi.

### Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot pedagogik texnologiyalar

“Xor partiturasini o‘qish” fanining o‘rganish jarayonida o‘qitishning quyidagi yangi texnologiyalaridan foydalanish ustoz va shogirdga birday samaralidir: kompyuter, audio-video vositalaridan foydalanish, yangi chet el va o‘zbek композиторларининг xop asarlarni doimiy tinglash, asarlarni mazmunan va musiqiy tahlil etish, hisobot kontsertlari o‘tkazish.

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv.** Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta’lim.** Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda san’at ( xor partiturasini o‘qish ) bilimini obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash -** kompyuter va axborot texnologiyalarini, multimedia vositalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

**O‘qitishning usullari va texnikasi.** Amaliy ijro va suxbat, tahlil,tushuntirish,ilovalash.

**O‘qitishni tashkil etish shakllari:** yakka , dialog,.

**O‘qitish vositalari:** o‘qitishning an’anaviy shakllari (darslik, notalar matni, xrestomatiyalar) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari, multimedia vositalari.

**Kommunikatsiya usullari:** tinglovchi bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blits-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida ijodiy konsert orqali talabaning xor partiturasini o‘qish borasidagi malakalari baholanadi.

**“Xor partiturasini o‘qish” fanidan mashg‘ulotlarning soatlar bo‘yicha taqsimlanishi:**

“Xor partiturasini o‘qish” fanmda mashg‘ulotlar yakka tartibda olib boriladi.

“ Xor partiturasini o‘qish ” **fani bo‘yicha soatlar taqsimoti**

| **Semestr** | **VI** | **VII** |
|---|---|---|
| **Hafta** | 18 | 18 |
| **Soat** | 1 | 1 |

**Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda fanning mazmuni mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. “Xor partiturasini o‘qish” fanining mavzuiy mazmun-mohiyati, asosiy tushunchalar va ish mazmuni ochib berilgan. Bunda talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan fan bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar to‘la qamrab olingan.

**Fanning amaliy mashg‘ulotlari mazmuni**

**Xor partituralari va ularning xususiyati**

Partitura yozovining vujudga kelishi. Xor partiturasini o‘qish fani tushunchalari.Xor asari partiturasida ovoz partiyalarining joylashuvi. Xor asari partiturasida kalitlar(skripra,alt,tenor va bas kalitlari).

**Xor asari partiturasi yozuvining turlari**

Bir turdagi xor asarlari**.** Aralash turdagi xor asarlari. Xor asari partiturasida matnning o‘rni. Bir qatorli partiturada yoziladigan matnlar. Ikki qatorli partiturada yoziladigan matnlar. Uch qatorli partiturada yoziladigan matnlar.To‘rt qatorli partiturada yoziladigan matnlar.

**Xor partiturasini fortepianoda chalish xususiyatlari**

Ko‘z yugurtirib o‘qish. Xor kuylashi bilan birga ko‘z yugurtirib o‘qish. Fortepiano oldida partitura o‘qish. Partiturani “ichida” o‘qish. Bir ovozli partitura. Ikki ovozli partitura. Uch ovozli partitura. To‘rt ovozli partitura.

**Xor partiturasini o‘rganish usullari**

Xor partituralarida adabiy matnning yozilishi. Xor partiturasidagi belgilanishlar. Bir ovozli partitura. Ikki ovozli partitura. Uch ovozli partitura. To‘rt ovozli partitura. Cqolg‘u jo‘rligida xor partituralarini ijro etish. Xor partiyalari orasidagi tessituraviy va dinamik munosabatlar tahlili.

**Transpozitsiyalash. Pedallashtirish**

Transpozitsiya qilish usullari. Xor bilan ishlash jarayonida transpozitsiyadan foydalanish shakllari. Pedalizatsiya qo‘llashning zarurligini ko‘rsatuvchi holatlar.Transpozitsiyadagi cheklanishlar.

**Xor asari partiturasini chalish jarayonida ishlatilishi.**

O‘ng qo‘lning xor asari partiturasini chalish jarayonida ishlatilishi. Chap qo‘lning xor asari partiturasini chalish jarayonida ishlatilishi.Xor asari partiturasini chalish va ijro etishda dinamik belgilarning ahamiyati.Xor asari partiturasini chalish jarayonida pedalning ishlatilishi**.**

**Vokal-xor partituralarining tahlili**.

Ijrochilar tarkibini, xorning turi va ko‘rinishini aniqlash. Xor partiyalari orasidagi tessitura, dinamik va tembr munosabatlarini aniqlash. Intonatsion qiyinchiliklarni, musiqiy jumlalar va she’riy matnlarni aniqlash.

**Yakka mashg‘ulotlar uchun ko‘rsatmalar**

3- kurs talabalari **“**Xor partiturasini o‘qish” fani mazmunida quyidagilarni o‘rganadilar:

- Partitura yozuvining vujudga kelishini; Xor partiturasida ovoz partiyalarining joylashuvini;. Xor partiturasida kalitlar” Xor partiturasi yozuvining turlarini bilib oladilar.
- bir turdagi jo‘rsiz xor uchun partitura ijrosini o‘zlashtiradilar;
- bir qatorli bir turdagi uch ovozli asar partiturasi ijrosini o‘zlashtiradilar;
- ikki qatorli bir turdagi ikki ovozli asar partiturasi ijrosini o‘zlashtiradilar;
- ikki qatorli bir turdagi uch ovozli asar partiturasi ijrosini o‘zlashtiradilar;
- badiiy mazmunidan kelib chiqib vokal-xor asarlarini og‘zaki tahlil qilish, shuningdek xor ovozlari munosabatlarini o‘rganadilar.

4- kurs talabalari **“**Xor partiturasini o‘qish” fani mazmunida quyidagilarni o‘rganadilar:

- Partitura yozuvining vujudga kelishini; Xor partiturasida ovoz partiyalarining joylashuvini;. Xor partiturasida kalitlar” Xor partiturasi yozuvining turlarini bilib oladilar.
- bir turdagi jo‘rsiz xor uchun partitura ijrosini o‘zlashtiradilar;
- bir qatorli bir turdagi uch ovozli asar partiturasi ijrosini o‘zlashtiradilar;
- ikki qatorli bir turdagi ikki ovozli asar partiturasi ijrosini o‘zlashtiradilar;
- ikki qatorli bir turdagi uch ovozli asar partiturasi ijrosini o‘zlashtiradilar;
- badiiy mazmunidan kelib chiqib vokal-xor asarlarini og‘zaki tahlil qilish, shuningdek xor ovozlari munosabatlarini o‘rganadilar.

4-kurs talabalari vokal-xor asari partiturasiini quyidagi tartibda o‘rganadilar:

a) 2 - 4 qatorli bir turdagi jo‘rsiz xor uchun ikkita partitura o‘zlashtirish.b) bir qatorli ikki ovozli asar partiturasini bir turdagi xor uchun yuqoriga va pastga kichik sekunda intervaliga o‘tkazib chalish va ijro qilish. (pedagog topshirig‘iga ko‘ra).

v) badiiy mazmunidan kelib chiqib vokal-xor asarlarini og‘zaki tahlil qilish, shuningdek xor ovozlari munosabatlarini o‘rganish.

g) a`kapella usulida yozilgan 3 qatorli xor asarini fortepiano jo‘rligida ijro etish va ovozlarni o‘zlashtirish.

d) bir qatorli uch ovozli asar partiturasini yuqoriga va pastga katta sekunda intervaliga o‘tkazib chalish va ijro qilish.

j) fortepiano jo‘rligida tanish bo‘lmagan bir qatorli ikki ovozli xor asari partiturasini bir qarashda chalish va ijro qilish.

z) fortepiano jo‘rligida aralash xor uchun yozilgan uch va to‘rt qatorli xor asari partiturasini chalish va ovozlarini birma-bir kuylash.

k) aralash xor uchun yozilgan ikki qatorli to‘rt ovozli xor asari partiturasini fortepiano jo‘rligida kichik va katta sekunda , kichik va katta tersiya intervallarida yuqori va pastga chalish va kuylash.

l) notanish bo‘lgan ikki qatorli ikki ovozli xor asari partiturasini fortepiano jo‘rligida bir qarashda chalish va kuylash

**Talablaridan kelib chiqqan holda talabaga beriladigan taxminiy asarlar**

1. Bir qatorli ikki ovozli partiturada yozilgan :

a)o‘zbek kompziorining 2 ta xor asari

b) jahon kompziorining 2 ta xor asari

2. Ikki qatorli ikki ovozli partiturada- 2 ta

a)o‘zbek kompziorining 2 ta xor asari

b) jahon - kompziorining 2 ta xor asari

3.Ikki qatorli uch ovozli partitura:

a)o‘zbek kompziorining 2 ta xor asari

b) jahon - kompziorining 2 ta xor asari

4. 2 - 4 qatorli bir turdagi jo‘rsiz xor uchun ikkita partitura:

a)o‘zbek kompziorining 2 ta xor asari

b) jahon - kompziorining 2 ta xor asari

5. 2 - 4 qatorli aralash xor uchun yozilgan to‘rt ovozli ikkitpartitura

a)o‘zbek kompziorining 2 ta xor asari

b) jahon - kompziorining 2 ta xor asari

6. fortepiano jo‘rligida aralash xor uchun yozilgan ikki va uch qatorli xor asari partiturasi

a)o‘zbek kompziorining 2 ta xor asari

b) jahon - kompziorining 2 ta xor asari

## Asarlar ro‘yxati
### II kurs uchun

1. N.Norho‘jayev “Daraxtlar suhbati” (bolalar a kapella xori uchun), . “Qo‘shiq – bizning do‘stimiz” to‘plami(tuzuv.Abramova S.,Alimov F.),T.,1988y.62 bet
2. .Yormatov“ Maysa”, “Qo‘shiq – bizning do‘stimiz” to‘plami(tuzuv.Abramova S.,Alimov F.),T.,1988y. 64 bet
3. A.Varelas “Ruchey” “Qo‘shiq – bizning do‘stimiz” to‘plami(tuzuv.Abramova S.,Alimov F.),T.,1988y 67 bet.
4. Boboyev S. “Vals” “Ikki bilaguzuk” musiqali dramasidan xor, **“**Polifonicheskoye solfedjio**”(** na materiale proizvedeniy kompozitorov Uzbekistane) 1 qism,T., 1986y**.:** 13 bet.
5. O‘zb. xalq.qo‘shig‘i «Shamol eshik ochadi», Umidjonov B.qayta ishlagan, Ruziyev SH.Xavaskorlik xori bilan ishlash metodikasi , T.,1993y, 124-125 bet
6. O‘zb. xalq. qo‘shig‘i “Yallama yorim” “Dirijerlik” Shukurov J., t.,2006y. 119-120 bet
7. O‘zb. xalq. qo‘shig‘i «Kizlarxon», Umidjonov B. qayta ishlagan,.Ruziyev SH “Xavaskorlik xori bilan ishlash metodikasi” , T.,1993y, 125-126 bet
8. O‘zb. xalq. qo‘shig‘i «Xay, yor-yor», Umidjonov B qayta ishlagan, “Dirijerlik”, J. Shukurov, T., 2006y. 121-123
9. O‘zb. xalq. qo‘shig‘i «Bug‘macha bilagim», Umidjonov B qayta ishlagan. “Dirijerlik” Shukurov J., T.,2006y. 123-124
10. O‘zb. xalq. qo‘shig‘i, «Yoshligim» B. Umidjonov qayta ishlagan, Kaziyev N.I. “Xrestomatiya po dirijirovaniyu xorom”, ch.2, T.,“1976
11. O‘zb. xalq. qo‘shig‘i, «Mungli kiz»- B.Umidjonov qayta ishlagan,Kaziyev N.I. “Xrestomatiya po dirijirovaniyu xorom”, ch.2, T., 1976
12. Raximov H “Tolimajon,” Kaziyev N.I. “Xrestomatiya po dirijirovaniyu xorom”, ch.2, 1976
13. Otajonov M., “O‘zbekiston –onajon ” «O‘zbekiston -Vatanim manim», ikkinchi kitob, T.,1997, 45- 48 bet
14. Mujdabayeva L., «Moy Uzbekistan», «O‘zbekiston -Vatanim manim», ikkinchi kitob, T.,1997, 37- 40 bet
15. Omonullayeva D., «O‘zbekiston - vatanim manim», to‘plami «O‘zbekiston - Vatanim manim», ikkinchi kitob, T., 1997, 4-6 bet
16. Raximov H “Mustaqillik alyori” «O‘zbekiston -Vatanim manim», to‘rtinchi kitob, T.,2000, 14- 17bet .
17. Norxo‘jayev N., «Toshkent shahrim» muz. «O‘zbekiston -Vatanim manim». birinchi kitob, T., 1996, 15-17 bet
18. O‘zb. xalq. qo‘shig‘i“Buxoro” Umidjonov B. qayta ishlagan, "Dirijerlik”, Shukurov J., T., 2006y. 31-32 bet
19. Umidjonov B., “Ruboi”, “Dirijerlik” Shukurov J. , T., 2006y. 32- 34 bet
20. Leviyev M., “Ayting gullar”, “Dirijerlik” Shukurov J., T.,2006y. 40-43 bet
21. Mansurov A., “Oxanglarda -ertaklar”, “Bolalar va yoshlar uchun qo‘shiqlar to‘plami”, T., 1999, 5-11 bet

22. Mansurov A., “Kel, baxt kuyin kuylaylik”, “Bolalar va yoshlar uchun qo‘shiqlar to‘plami”, T., 1999, 23-27 bet
23. Rubinshteyn “Nochenka” xor iz operq “Demon” Popov S. Xrestomatiya po xorovoy literature, L.,1951,94-97 bet
24. Glinka M. “Ne tuji, ditya rodimoye” xor iz operi “Ruslan i Lyudmila” Popov S. Xrestomatiya po xorovoy literature, L.,1951,19-22 bet

**III kurs uchun**

1. Leviyev M., «Yali - yali», Kaziyev N.I. Xrestomatiya po dirijirovaniyu xorom, ch.2, T., 1976
2. Muxamedov A., “Alla”, Kaziyev N.I. Xrestomatiya po dirijirovaniyu xorom, ch.2., T., 1976 g
3. Rahimov H., «Diyorim ulkam», SH. Yormatov xor kayta ishlagan
4. Boboyev S., «Baxor yallasi», Kaziyev N.I. Xrestomatiya po Dirijirovaniyu xorom, ch.3, T., 1977 g
5. Omonullayeva D., «Tugilgan kunning muborak bo‘lsin», «O‘zbekiston -Vatanim manim», birinchi kitob, T., 1996, 5-9 bet
6. Xorazm xalq kushig‘i «Go‘zal qizga», Burxonov M. kayta ishlagan, O‘zbek xor adabiyoti xrestomatiyasi, T., 1982
7. Omonullayeva D.,«Zarralari zar Vatan», «O‘zbekiston -Vatanim manim», birinchi kitob, T., 1996, 9-12 bet
8. Yormatov SH. «Qatralabon bir tomadur»
9. Toj xalq qushigi «Gar namedoni bidon», Umidjonov B. qayta ishlagan, Kaziyev N.I. “Xrestomatiya po dirijirovaniyu xorom”, ch.3., T., 1977 g
10. Akbarov I., «Xoral», Kaziyev N.I.. Xrestomatiya po Dirijirovaniyu xorom, ch.3, T., 1977 g
11. Qorak xalq qo‘shig‘i “Ayralik» Burhonov M. qayta ishlagan, O‘zbek xor adabiyoti xrestomatiyasi, T., 1982
13. Afgan xalq qo‘shig‘i «Chashmi siyox» Burhonov M. qayta ishlagan, Kaziyev N.I. Xrestomatiya po dirijirovaniyu xorom, ch.4, T., 1978 g
14. Narxodjayev N. «Dilda bahor» sbornik pesen Toshkent 1988.
18.Burhonov. M. karak xalq qushiqlari qayta ishlagan «Ayralik», O‘zbek xor adabiyoti xrestomatiya, T., 1982
19.Sharafiyeva N. o‘zb.xalq qushiqlari qayta ishlagan «Deydi –yo»
20.Umidjonov.B. tojik xalq qushiqlari qayta ishlagan «Diliman», Koziyev N.I., Xrestomatiya po Dirijirovaniyu xorom, ch.3, T., 1977
21. Umidjonov B. kirg.xalq qushiqlari qayta ishlagan «Komuzchu», Koziyev N.I. Xrestomatiya po Dirijirovaniyu xorom, ch.2.,T., 1976
22. Umidjonov B. o‘zb.xalq qushiqlari qayta ishlagan «Lapar», Koziyev N.I. Xrestomatiya po Dirijirovaniyu xorom, ch.2, T., 1976
23. Umidjonov B. qozox.xalq qushiqlari qayta ishlagan «Yapuray», Koziyev N.I.,Xrestomatiya po Dirijirovaniyu xorom, ch.,T.,1976
24. Umidjonov B. o‘zb.xalq qushiqlari qayta ishlagan «Qora soch», Koziyev N.I.,Xrestomatiya po Dirijirovaniyu xorom, ch.2, T., 1976

25.Umidjonov. B. tojik.xalq qushiqlari qayta ishlagan «Gar namedoni bidon», Kaziyev N.I. Xrestomatiya po Dirijirovaniyu xorom, ch.2, T., 1976

**IV kurs uchun**

1. H.Rahimov "Ustozlarim" "O'zbekiston – Vatanim manim" to'plami(4 kitob),T.2000., 40 b.
2. N.Norho'jayev "Kapalak va kamalak" "O'zbekiston – Vatanim manim" to'plami(4 kitob),T.2000., 36 b.
3. N.Norho'jayev" Ona-yer taronasi" "O'zbekiston – Vatanim manim" to'plami(4 kitob),T.2000., 8 b.
4. N.Norho'jayev "Archa bayram" "O'zbekiston – Vatanim manim" to'plami(4 kitob),T.2000., 55 b.
5. A.Mansurov "Quvnoq yomg'ir" "O'zbekiston – Vatanim manim" to'plami(4 kitob),T.2000., 58 b.
6. Tursunov R., "Novbaxor" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006, 38-39 bet.
7. Leviyev M., " Ayting gullar" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006 40-43 bet.
8. Alimov F." Nido" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006 55-58 bet
9. Chaykovskiy P. "Buron allasi" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006 58-63 bet
10. Alimov F., "Mehrjon" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006 85-89 bet.
11.Alimov F.. "Sumalak" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006 93-97 bet.
12. Muhamedov A., "Yetti qiz" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006 97-99 bet.
13. Alimov F., "Ozod Vatan- obod Vatan" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006 , 100-103 bet.
14. Mansurov A., "Xur Respublikam" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006,104-107 bet.
15. Xalq musiqasi Boboyev S., kayta ishlagan "Yomgir yog'aloq" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006 , 129-130 bet.
16. Mamirov Q., "Boshqolar" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006 131-132 bet
17. Mamirov Q., "Quyon" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006y. .132-133 bet.
18. Yormatov SH., "G'ildiragim" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006y.,136-138 bet.
19.Yormatov SH., "Qizg'aldoq" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006y.,138-141 bet.
20. Alimov F. "Oppoq qandim" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006y.,142-144 bet.
21.Kalonov S., "Xormang qizlar" Shukurov J. "Dirijyorlik" tuplami, T., 2006y., 144-146 bet.

## Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta’lim mazmuni shundan iboratki, talabalar o‘zlari tanlagan kasblari bo‘yicha chop etilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, mutaxassis va mashhur xonandalarning ilmiy maqolalarini o‘qishlari va u yerdagi ilg‘or fikr-mulohazalarni va tajribalarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiq. Talaba o‘rgana boshlagan qo‘shig‘ining muallifi, ijodiy faoliyati uning o‘ziga xos jihatlari va o‘zbek milliy musiqa madaniyatida tutgan o‘rni haqida o‘qib, bilib olishi zarur.

Xor partiturasi bilan tanishib borish, badiiy jamoalar faoliyati bilan yaqindan tanishish, nota yozuvi ustida ishlash.

## Dasturning axborot-uslubiy ta’minoti

Fanni o‘qitishda quyidagi yangi zamonaviy ta’lim metodlari va texnologiyalarining qo‘llanilishi nazarda tutiladi:

1. Mavjud kompyuter dasturlaridan foydalanish.
2. Internetdan olingan ma’lumotlardan foydalanish.
3. Talabalar bilimlarini baxolashda, nazoratlarni o‘tkazishda akademik konsert, ko‘rik tanlov va yoshlar festivalidan foydalanish.
4. Nazorat ishlari bazasini tashkil etish.
5. Fan o‘zlashtirilishini tayanch iboralari bilan ta’minlash: kompyuterli, informatsion va boshqa zamonaviy o‘qitish texnalogiyalari, yangi o‘quv qo‘llanmalar, yangi zamonaviy o‘zbek va xorijiy kompozitorlarining asarlardan, o‘qitish ko‘rgazmalari – ko‘rik tanlovlari, mashhur bastakorlarning ijodi va hayoti bilan tanishish, o‘zbek teleradiokompaniyasi oltin fondidan foydalaniladi.

## “Xor partiturasinio‘qish” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni

“Xor partiturasini o’qish” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** - talabaning fan mazmuni bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;
- **yakuniy nazorat (YAN)** - semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha amaliy bilim va ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan kafedra professor-o’qituvchilari tinglanadi va baxolanadi.

Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YAN** ni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YAN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YAN** qayta o‘tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«Хор партитурасини ўқиш» fani bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

J.N.- 70 ball va Y.A.N.-30 ball qilib taqsimlanadi.

| **Ball** | **Baho** | **Talabalarning bilim darajasi** |
|---|---|---|
| 86-100 | A’lo | 1-4 qatorli xor partitura o‘qish texnikasi asoslarini mukammal bilishi va ijroda ifoda eta olishi;<br>Ijro mahorati ( to‘g‘ri badiiy talqin, vokal –xor tahlili вокal-xor tahlili , partiya ovozlari ijrosi sofligi) |
| 71-85 | Yaxshi | 1-4 qatorli xor partituralari asoslarini bilishi va fortepianoda ijro eta olishi ( sof intonatsiya, , ovozni asardagi obrazga mos yo‘naltira bilish).<br>Vokal-xor ta\lilini qila olishi. |
| 55-70 | Qoniqarli | 1-4 qatorli xor partitura i asoslarini sust o‘zlashtirilganligi, musiqani eshitish qobiliyati , ritmni his etishi o‘rtachaligi, musiqiy –adabiy matnning ijrosi yetarlicha ifodali emasligi. |
| 0-54 | Qoniqarsiz | Musiqiy eshitish, ritmni his etishi juda sust. Xor partituralari ijrosi o‘zlashtirilmaganligi |

Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

- Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha joriy va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo‘yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $K = \frac{U*0'}{100}$

bu yerda: *V*- semestrda fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklamasi (soatlarda); *O‘* -fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi (ballarda).

- Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.
- Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.
- **YAN** turlari kafedra ish rejasiga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. **YAN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.
- **JN** nazoratlarda saralash balidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra

nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** turlari bo‘yicha to‘plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakuniy joriy, yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plagan ballari yig‘indisi 55 baldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.
- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.
- Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.
- Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o‘quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

## Talabalar ON dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

“Xor partiturasini o’qish” fanida reytinglar 4 JN va YAN shaklida o‘tkazilinadi.

## Talabalar JN dan to‘playdigan ballarning namunaviy mezonlari

| **№** | **Ko‘rsatkichlar** | **J** | **1-JN** | **Mustaqil talim** |
|---|---|---|---|---|
| | | **maks** | | |
| 1 | Darslarga qatnashganlik darajasi. Yakka darslardagi faolligi, xor partiturasini o‘qish texnika asoslarini o‘zlashtirishi, vokal-xor matn ustida ishlashi. Asarlarni jo‘rnavoz bilan kuylash. | **17** | | |
| 2 | Berilgan dasturlarn xor o‘qish texnikasi asoslari asosida o‘zlashtirish; Fortepianoda 1-4 qatorli partituralarni ijro eta olish va ta\lil qilish | **18** | | |
| 3 | Berilgan dasturlarni adabiy xor asarlari ijrosidagi obrazlar ustida ishlash. Talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini o‘z vaqtida sifatli bajarishi va o‘zlashtirishi. Asarlarni jo‘rnavoz bilan | **17** | | 0-5 |
| 4 | Berilgan dasturlarni bilish, badiiy obrazda kuylay bilish va mustaqil ta’ lim topshiriqlarini bajarish. Asarlarni jo‘rnavoz bilan kuylash. | **18** | | 0-5 |
| **Jami JN ballari** | | **70** | | |

## Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

## Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

2. Sq.Ro‘ziyev “Xorshunoslik” G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,T..1993.y.
3.Q.T.Mirzayev “Kichik bolalar xori bilan ishlash metodikasi”,RNMTS.,T,,1990 y.
4. M.Azimov, “Proizvedeniya narodov Sredney Azii i Kazaxstana” v obrabotke B.Umidjanova.1 i2 chasti.T., 1982y.

## Qo‘shimcha adabiyotlar

I.Poltavtsev. «Kurs chteniya xorovix partitur», ch.1., M.,1963y.
1. N.Sharafiyeva. “Xor sinfi”, Musiqa T.2005y.

## III. 1. Ta'lim texnologiyasi

<table>
<tr><td>Mashg'ulot vaqti-1 soat(45 minut)</td><td colspan="2">Talaba soni:1</td></tr>
<tr><td>Mashg'ulot shakli</td><td colspan="2">Yakka</td></tr>
<tr><td>Yakka</td><td colspan="2">1. "Xor partiturasini o'qish" fani haqida umumiy ma'lumot.(2 soat)<br>Reja: 1. Partitura yozuvining vujudga kelishi.<br>2.Xor partiturasida ovoz partiyalarining joylashuvi.</td></tr>
<tr><td colspan="3">O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabada xor partiturasini o'qishning amaliy ahamiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, usullari haqida tushuncha hosil qilish.Xor partituralari, unda ovozlarning joylashuvi haqida tushuncha berish.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Pedagogik vazifalar:<br> o'quv kursining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tushuncha berish;<br> "Xor partiturasini o'qish"fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi haqida tushuncha berish;<br> fanining asosiy tushunchalari- "partitura","faktura","xor yozuvi" va ularninig o'zaro bog'liqligi bilan tanishtirish.<br> Xor partiturasida ovoz partiyalarining joylashuvi xususiyatlarini ko'rsatib berish;<br> akkolada va ularning turlari haqida ma'lumot berish;.</td><td>O'quv faoliyati natijalari:<br> o'quv kursining maqsadi va vazifalarini, o'tiladigan mavzularni sharhlab beradi;<br><br>"Xor partiturasini o'qish"fanining boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligini yoritib beradilar;<br> fanining asosiy tushunchalari- "partitura","faktura","xor yozuvi" va va ularninig o'zaro bog'liqligini aytib beradilar;<br> Xor partiturasida ovoz partiyalarining joylashuvi xususiyatlarini,akkolada va ularning turlarini aytib beradilar;</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ta'lim berish usullari</td><td>Amaliy,suhbat</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ta'lim berish shakllari</td><td>yakka</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ta'lim berish vositalari</td><td>Fortepiano, nota xrestomatiyalar</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ta'lim berish sharoiti</td><td>moslashtirilgan auditoriya</td></tr>
<tr><td colspan="2">Monitoring va baholash</td><td>nazorat: savol-javob ,ijro</td></tr>
</table>

## III. 2. “Xor partiturasini o‘qish” fani mashg‘ulotining texnologik xaritasi

| *Ishbosqichl arivavaqti* | *Faoliyat mazmuni* | |
|---|---|---|
| | ***Ta’lim beruvchi*** | ***Ta’lim oluvchilar*** |
| **Tayyorgar lik bosqichi.** | 1. Mavzu bo‘yicha o‘quv mazmunini tayyorlash.<br>2. Predmetga kirish mashg‘uloti uchun asosiy tushuncha va atamalar,materiallarni tayyorash.<br>3. Talabalar o‘quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.<br>4. O‘quv kursini o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxatini ishlab chiqish. | |
| **1. Mavzuga kirish** *(15 daqiqa)* | 1.1. O‘quv kursi nomini aytadi. Mashg‘ulotlar mazmuni ro‘yxatini beradi va ularga qisqacha ta’rif beradi.<br>1.2. Birinchi mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.<br>1.3. Talabalar o‘quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi *(1-ilova)*. | Tinglaydi.<br><br>Tinglaydi.<br>. |
| **2-bosqich Asosiy bosqich** (55 daqiqa) | 2.1. Notalarni, partituralarni izohlash bilan mavzu bo‘yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.<br>2.2. “Xor partiturasini o‘qish” fani va uning boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligi haqida tushunchalarni aks ettiruvchi slaydlar namoyishi orqali ma’lumotlar beradi *(2-ilova)*.<br>2.3. “Xor partiturasini o‘qish” faning tushunchalari- “partitura”,”akkolada” va “xor yozuvi” va ularninig o‘zaro bog‘liqligini o‘quv materiallari orqali tushuntirib beradi *(4-ilova)*.<br>2.4. Talabani faollashtirish maqsadida asarlar | Tinglaydi, yozadi.<br><br>Talaba ijro |

| | | |
|---|---|---|
| | notalarni, partituralarni fortepianoda chalib ko'rsatish bilan mavzu bo'yicha asosiy amaliy jihatlarini tushuntirib beradi.<br>2.5. Turli xor tarkiblari uchun yozilgan partituralari namunalari bilan tanishtiradi,. xor partiturasini o'qishning o'ziga xos xususiyatlari, usullarini ijroda ko'rsatib beradi. Ijro uchun repertuar bilan tanlaydi.<br>Asosiy tushuncha va atmalarga alohida to'xtaydi. | ko'rsatmalarini bajarishga harakat qiladi.<br>Tinglaydi, yozadi.<br>Atamalar,tayanch tushunchalarni yozib oladi.Repertuar tanlashda ishtirok etadi. |
| **3. Yakuniy bosqich** *(10 daqiqa)* | 3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.<br>3.2. Mustaqil ishlash uchun o'quv materialini(tanlangan asarni o' o'rganish vazifasini beradi: *(7-ilova*). | Vazifani yozib oladi. |

# IV. Yakka mashg'ulotlar mazmuni.

**1 -mashg'ulot**

| **Mavzu** | **"Xor partiturasini o'qish" faning maqsad va vazifasi** |
|---|---|
| **Maqsad va vazifalar** | Talabalarda xor partiturasini o'qishning amaliy ahamiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, usullari haqida tushuncha hosil qilish.Xor partituralarsi, unda ovozlarning joylashuvi, haqida tushuncha berish. |
| **O'quv jarayoning mazmuni** | Turli xor tarkiblari uchun yozilgan partituralari namunalari bilan tanishish. xor partiturasini o'qishning o'ziga xos xususiyatlari, usullari haqida boshlang'ich ma'lumotlar berish. Ijro uchun repertuar bilan tanishtirish.. |

| | |
|---|---|
| **O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi** | **Metod: Suhbat** –dialog,ifodali ijroda ko'rsatish, badiiy tahlil<br>**Sqakli :** amaliy<br>**Vosita:** CD DVD yozuvlar, ko'rgazmali materiallar<br>**Usul:** emosional ta'sir etish<br>**Nazorat:** ijrochilik mala o'zini eshitish.<br>**Baholash:** |
| **Kutiladigan natijalar** | **O'qituvchi:**<br>Asarni qisqa vaqt ichida talaba tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. Ijro mahoratini rivojlantirib. ijro sifatini yaxshilaydi. Mashg'ulot davomida talabaning faolligini oshiradi va qiziqishini uyg'otadi. dars yakunida talabani baholaydi va aniq vazifalar beradi.<br>**Talaba:**<br>Xor partiturasi ijrosiga oid yangi bilim va malakalarga ega bo'ladi. Fortepianoda partitura ijrosi ifodaviyligi ustida ishlaydi. Ijroda musiqiy uslublar, garmonik soflikka e'tibor qaratadi. Ijro jaryonidagi o'z xatolarini eshitishni o'rganadi. Asarni musiqiy badiiy nazariy tahlil qilish malakalarini shakllantirishga harakat qiladi. . |
| **Kelgusi natijalar** | **O'qituvchi:**<br>Har bir xor asari partiturasini o'qish jarayonida musiqa uslublariga mos holda ijroga erishish,unda qiyosiy tahlil texnologiyalaridan foydalangan holda talabaning musiqiy tajribasini boyitshga erishish. Talabada xor asariga ijodiy yondoshuvni rivojlantirish.<br>**Talaba:**<br>Amaliy ijro asosida nota matnlari bilan mustaqil ishlashni o'rganishi, turli ijrochilik malakalarini takomillashtirishi, xor yozuvini idrok va ijro asosida tahlil etishga erishishi,o'zining kasbiy bilimlarini mustag'kamlashi lozim. |

: **2- mashg'ulot**

| **Mavzu** | Partitura yozuvining vujudga kelishi |
|---|---|
| **Maqsad va vazifalar** | Talabada xor partiturasi, uning tarixiy rivoj yoli haqida tassavvur va tushushnchalar hosil qilish. |
| **O'quv jarayoning mazmuni** | Partitura yozuvining vujudga kelishi, xor partiturasi tuzilishi, partiyada ovozlar harakati va bo'linishii tushuntirish, partituradagi maxsus belgilar haqida ma'lumot berish. Xor asarlari ijrosi va tahlili ustida ishlash. |
| **O'quv jarayonini amalga oshirish** | **Metod: Suhbat** –dialog,ifodali ijroda ko'rsatish, badiiy tahlil |

| | |
|---|---|
| **texnologiyasi** | **Sqakli :** amaliy<br>**Vosita:** CD DVD yozuvlar, ko'rgazmali materiallar<br>**Usul:** musiqiy ilovalar<br>**Nazorat:** uy vazifasi va dars jarayonidagi faollikka e'tibor qaratish;.<br>**Baholash:mezon asosida** |
| **Kutiladigan natijalar** | **O'qituvchi:**<br>Asarni qisqa vaqt ichida talaba tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. Ijro mahoratini rivojlantirib. ijro sifatini yaxshilaydi. Mashg'ulot davomida talabaning faolligini oshiradi va qiziqishini uyg'otadi. dars yakunida talabani baholaydi va aniq vazifalar beradi.<br>**Talaba:**<br>Xor partiturasi ijrosiga oid yangi bilim va malakalarga ega bo'ladi. Fortepianoda partitura ijrosi ifodaviyligi ustida ishlaydi. Ijroda musiqiy uslublar, garmonik soflikka e'tibor qaratadi. Ijro jaryonidagi o'z xatolarini eshitishni o'rganadi. Asarni musiqiy badiiy nazariy tahlil qilish malakalarini shakllantirishga harakat qiladi. . |
| **Kelgusi natijalar** | **O'qituvchi:**<br>Partitura yozuvining vujudga kelishi, xor partiturasi tuzilishi, partiyada ovozlar harakati va bo'linishii ko'rgazmalar asosida talabada yangi bilimlarni hosil qilishga erishidi. Unda partitura ustida ishlish malakalarini o'stiradi.. Talabada xor asariga ijodiy yondoshuvni rivojlantirishni davom ettiradi.<br>**Talaba:**<br>Amaliy ijro asosida nota matnlari bilan mustaqil ishlashni o'stirish, turli ijrochilik malakalarini rivojlanishi, xor yozuvini idrok va ijro asosida tahlil etishga erishishi,o'zining kasbiy bilimlarini mustahkamlashi lozim. |

## 3- mashg'ulot

| | |
|---|---|
| **Mavzu** | Xor asari partiturasida kalitlar. |
| **Maqsad va vazifalar** | xor partiyalari "do"tizimi kalit belgilari, zamonaviy yozuvdan farqi haqida tasavvur hosil qilish, bu kalit belgisida yozilgan asarlar ijro malakasi ustada ishlash |
| **O'quv jarayoning mazmuni** | 1. Skirpka kaliti. alt kaliti. tenor kaliti,bas kaliti va ularda yozilgan partituralarni ijro va tahlilda tanishtiradi.Repertuar rejasidagi asarlar ustida ish olib boriladi. |

| | |
|---|---|
| **O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi** | **Metod:** og‘zaki - informativ, ifodali ijroda ko‘rsatish, badiiy tahlil<br>**Sqakli :** amaliy<br>**Vosita:** CD DVD yozuvlar, ko‘rgazmali materiallar<br>**Usul:** musiqiy ilovalar<br>**Nazorat:** uy vazifasi va dars jarayonidagi faollik JN.<br>**Baholash: mezon asosida** |
| **Kutiladigan natijalar** | **O‘qituvchi:**<br>Asarni qisqa vaqt ichida talaba tomonidan o‘zlashtirilishiga erishadi. Ijro mahoratini rivojlantirib. ijro sifatini yaxshilaydi. Mashg‘ulot davomida talabaning faolligini oshiradi va qiziqishini uyg‘otadi. dars yakunida talabani baholaydi va aniq vazifalar beradi.<br>**Talaba:**<br>Xor partiturasi ijrosiga oid yangi bilim va malakalarga ega bo‘ladi. Fortepianoda partitura ijrosi ifodaviyligi ustida ishlaydi. Ijroda musiqiy uslublar, garmonik soflikka e’tibor qaratadi. Ijro jaryonidagi o‘z xatolarini eshitishni o‘rganadi. Asarni musiqiy badiiy nazariy tahlil qilish malakalarini shakllantirishga harakat qiladi. . |
| **Kelgusi natijalar** | **O‘qituvchi:**<br>xor partiyalari “do”tizimi kalit belgilari,uning zamonaviy yozuvdan farqi haqida yangi bilim, malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi,. Unda partitura ustida ishlash malakalarini o‘stiradi.. Talabada xor asariga ijodiy yondoshuvni rivojlantirishni davom ettiradi.<br>**Talaba:**<br>Amaliy ijro asosida nota matnlari bilan mustaqil ishlashni o‘rganishi, turli ijrochilik malakalarini takomillashtirishi, xor yozuvini idrok va ijro asosida tahlil etishga erishishi,o‘zining kasbiy bilimlarini mustahkamlashi lozim. |

## V. Tayanch tushunchalar

Xor, partitura, xor partiturasi, xor partiturasi yozuvi tizimi, xor partiturasi turlari, musiqa ifoda vositalari, akkolada, transpozisiya, transpozisiyalash turlari, akkolada turlari, partiturani notalashtirish kalitlari, xor turi va ko‘rinishi, bolalar xori uchun parititura yozuvi, ayollar xori uchun partitura yozuvi, erkaklar xori uchun partitura yozuvi, aralash xor uchun partitura yozuvi, divizi, doimiy divizi, epizodik divizi, sezura, agogik chekinishlar, temp belgilanishlari, bir qatorli xor partitura, ikki qatorli xor partitura, uch qatorli xor partitura, to‘rt qatorli xor partitura, pedallashtirish, partiturani “varaqdan o‘qish tamoyillari”, koloristik usullar va ularning belgilanishi, vokal-xor tahlili.

## VI. Kollokvium uchun savollar

1.”Хор партитураси” деб нимага айтилади?

2. Хор партитураси ёзуви бировозли мусиқа ёзувидан қандай фарқ қилади?

3.Хор учун асарлардаги “овоз партияси” деганда нимани тушунсиз?

4. Болалар, аёллар ва эркаклар овоз партияларининг хорда ва партитураларда асосий номланиши қандай?

5. Овоз партиялари партитурада қандай тамойил асосида жойланади?

6. Партитурада сатрлар тизими деб нимага айтилади?

7. Акколаданинг аҳамияти нимада?

8. Хор партитураларида овоз партияларини ноталаштиришнинг замонавий калитларини айтинг.

9. Скрипка ва бас калитларида тенор партияси қандай ўқилади ва жаранглайди?

10. Хор тури ва кўринишиларини айтинг.

11. Болалар,аёллар ва эркаклар хори,аралаш ва тўлиқсиз аралаш хор учун асарларда овоз партияларининг энг кам сони қанча?

12. Партитурада асосий овоз партиялари қандай қўшимча бўлинишга эга бўлиши мумкин ва улар қандай номланади?

13. Партитуралар ёзуви хор тури ва кўриниши бўйича қадай фарқланади?

14. Яккахон(солист) қатнашадиган хор асарлари партитура ёзуви қандай амалга оширилади?

15. Адабий матн хор партитурасида қандай ифодаланади?

16. Хор партитурасида товуш йўналиши характери, колористик усуллар,темп белгланиши ва ҳ.к. қандай белгиланади?

## VII. Glossariy

**Rartitura -** italyancha “bo‘linish,bo‘lish” ma’nosini bildiradi**;**
**Xor partiturasi -** xor musiqasi nota yozuvi;
**Xor partiturasini o‘qish-** partiturani fortepianoda o‘qish, xor ovozlarini kuylash, transpozitsiyalash. Partitura ijrosi maxsus bilim va malaka-nota yozuvini bir vaqtning o‘zida ham vertikal, ham gorizontal yo‘nalishda anglab olish qobiliyatini taqozo etadi.
**xor partiyalari** - diapozoni va tembri bo‘yicha bir xil bo‘lgan ijro ovozlari guruhlari;xor partiyalariga yuqori ovozlar partiyasi va pastki ovozlar partiyasi kiradi.
**akkolada** - xor partiturasi nota chiziqlarining chap tarafdan birlashtiruvchi boshlang‘ich chiziq;
**bir turdagi xor** - bir turdagi ovozdan(bolalar, ayollar,yerkaklar ovozi) tashkil topgan xor;
**bolalar xori** - yosh xususiyatlariga ko‘ra farqlanadigan xor.Xor sadosi g‘oyatda yengil, falsetli,diapozoni cheklangan;
**ayollar xori**- ayollar ovozlari: soprano va messo soprano,kontraltodan tarkib topgan xor.A.X. umumiy diapozoni ikki yarim oktavadan iborat;
**yerkaklar xori**- erkaklar ovozi: tenor, bariton va baslardan iborat bo‘lgan xor; Diapozoni 3 oktavadan ortiq: lya kat. **–lya 1,do2.**
**aralash xor**- turli jinsli(yerkaklar va ayollaryoki bolalar)ovozlarning qo‘shilishidan tarkib topgan xor Odatda S.,A.,T.,Blardan iborat;
**Diapazon**- hamma ovoz, soz yoinki jamoa, xususan xorning eng pastidan –yeng balandigacha bo‘lgan tovushlari hajmi.
**Divizi**- xor partiyalarini ikki - uch va undan ortiq ovozlarga vaqtinchalik bo‘linishi.
**Dinamika** - tuvushlarning sadolanish kuchi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon majmui. Musiqaning eng muhim ifoda vositalaridan beri. Dinamika tuslar – forte, piano, kreshendo, diminuendo va boshkalar
**Janr** - o‘ziga xos xususiyatlar majmui b-n belgilanadigan musiqa, asarlari turlari.
**Jo‘r ovoz** - ko‘p ovozli qo‘shiqni asosiy ohangining turi, boshka ovozlar bilan polifonik munosabatda bo‘lishi.
**Inotasiya** - musiqa ijrosida tovush balandligini aniq ifoda etish.
**Interval** - ikki musiqa tovushi orasidagi balandlik oralig‘i, o‘zaro bog‘lanishi.
**Kanon** - kuyning barcha ovozlardagi aniq takrorida qat’iy taklid (imitasiya)ga asoslangan polifonik musiqa shakli.
**Kapella -** xor jamoasi.
**Kuy-** melodiya – musiqaning asosiy ifoda vositasi.
**Tessitura** - xonanda ovozining diapozoniga nisbatan kuy tovushlarni balandlik holati.
**Ton berish** dirijer tomonidan ijro etiladigan jo‘rsiz asarining tonaligiga xorni sozlash uchun bir yokiy birnecha tovushlarni past ovozda daslabki ko‘ylanishi.
**Nafas belgisi** – (vergul, yoki “V” belgisi) - barcha vokal asaolar nota yozuvida (xor partitura, partiya)da nafas almashuvi belgisi.

**Nafas** - kuylash jarayonining muxim qismi ovoz hosil qilishning asosiy omillaridan, ovozning quvvat manbai.
**Partitura** - xor, ansambl yoki orkestrga moʻljallangan musiqa asarining toʻliq nota yozuvi
**Repertuar** - oʻrganiladigan asarlar majmui.
**Repetisiya** - mashgʻulot, tayorgarlik, konsert programmasi yoinki speklaklni tayyorlashda dirijerning ijrochilar bilan oʻtkazadigan tayyorlov mashgʻulotlari
**Ritm** – tuvushlarning uzun-qis qaliklari va urgʻularning almashib kelishiga asoslangan musiqiy tushuncha, har bir musiqa asari uz ritmiga ega buladi.
**Solfedjiolash** - notalar nomini aytib kuylash; xorda keng kullanadi. Xor partiyalarini oʻrganish koʻpincha solfedjio bilan boshlanadi.
**Tessitura** - harqanday chrlgʻu yoki xonanda ovozining diapazaniga nisbatan kuy tovushlarni balandlik holati.
**Transpozitsiya**( "koʻchirish" lot.) - musiqa asarini ma'lum interval balandga yoki pastga koʻchirish.T.ning asosiy qoidasi – asar oʻzgarmagan holda koʻchiriladi,uning kuyi,usuli,garmoniyasi,ovozlar soni,ularning joylashuvi va h.k. saqlanadi.T.amaliy malakasiga ega boʻlish uchun xor partituralarini oʻqish oʻquv mashgʻulotlari orqali amalga oshiriladi**.**
**Frazirovka** - musiqiy asar ijrosida ayrim ibora, jumlalarni aniq va ma'noli etib koʻrsatish ifodalash.
**Fermata** – tovush, ma'lum akkord yoki rauzani choʻzish belgisi.
**Faktura("**ishlov berish"-lot.)-musiqiy bayon vositalari majmui: asarning kuyi,figuratsiyasi,alohida ovozlar va h.k.
**Xor** - vokal asarlarni cholgʻular joʻrligidayoki joʻrsiz (a kapella) ijro etadigan xonandalar jamoasi.
**Sezura(** lot.coesura - kesish,boʻlish) – musiqiy iboralar orasidagi chegara.Qisqa,kam seziladigan paza koʻrinishida ijro etilib, kuylashda koʻpincha nafas almashashi bilan kechadi.TS. maxsus belgilar(nota ustidagi vergul(apostrof),V-"belgi",liga oxiri, taktlar oraligʻidagi farmatalar) yordamida koʻrsatiladi.

## VIII. Mustaqil ish mazmuni va koʻrsatmalari.

Talaba yakka mashgʻulotlarda olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun oʻz ustida muntazam mustaqil shugʻullanishi talab etiladi.Buning uchun talaba berilgan xor asarlari partituralarini ish turlariga qarab,masalan,fortepianoda ,ya'ni notaga qarab oʻqishi(nigohi bilan ham), axborot texnologiyalari va DVD yozuvlarda yangi asarlar bilan tanishishlari,tanlangan asarni musiqiy jumlalarga boʻlib,har birini alohida ,soʻngra yahlit shakl sifatida oʻrganishi,bir –toʻrt qatorli partituralarni oddiydan mupakkabga qarab ijro etib,ovozlarini oʻrganishi,oddiy partituralarni transpozisiya qilib chalishi,ohangni taktlab kuylashga e'tibor qaratishi,joʻrli asarlar partituralarini oʻrganib,ijro etishlari talab etiladi.Asarlarning ijroviy tarafidan tashqari musiqiy-nazariy, vokal-xor tahlili ham talabaning ancha keng doirada fikr yuritishini koʻzda tutadi.Bunda soʻz va jumlalarning ijro etilishi,

ovozlar xususiyatlarini, tovush, ritmik va so‘z talaffuzlarini aniqlash;asar shakli, ladotonal rejasi, yozuv uslubi, ritm, sur’at, agogika, kuchlanish, garmonika jihatlarini o‘rganilishini ,kuchli ovoz bilan kuylash joyi va asarning kulminasion nuqtasini, ijro etiladigan asarning uslub va janrini aniqlash,badiiy ijro etish muhim vazifalardandir.

## IX. Referatlar mavzusi

1.Partituralarning tarixiy vujudga kelish yo‘li.
2.Xor partiturlari tuzilishi xususiyatlari.
3. Xor turi va ko‘rinishi.
4.Partitura yozuvi tizimi.
5. Xordagi ovoz partiyalarini notalashtirish kalitlari.
6. Bir turdagi xorlar uchun partitura yozuvi.
7. Aralash xorlar uchun partitura yozuvi.
8. Yakkaxon(solist) qatnashadigan xor asarlari partitura yozuvi.
9. Cholg‘u jo‘rligidagi xor asarlarining partitura yozuvi.
10. Cholg‘u jo‘rligidagi xor asarlarining partitura yozuvi.
11. Partiturada tovush yo‘nalishi xarakterining belgilanishi.
12. Partiturada koloristik usullarning belgilanishi.
13. Xor partituralarini o‘rganish turlari.
14. Xor partiturasini fortepianoda o‘qish tamoyillari.
15. Xor partiyalari orasidagi tessituraviy va dinamik munosabatlar.
16. Partituraning vokal-xor tahlili.
17. O‘zbekiston kompozitorlarining jo‘rsiz xor uchun asarlari
18. 15-17 asrlar G‘arbiy Yevropa kompozitorlarining polifonik xor asarlarida partitura yozuvlarining turlari.
20. P.I.Chaykovskiyning a kapella asarlarida partitura yozuvi xussiyatlari.
21.O‘zbekiston kompozitori M.Bafoyevning “Naqshlar” poemasida koloristik belgilanishlarning milliylik xususiyatlari.
22.N. Sharafiyevaning xalq qo‘shiqlari qayta ishlanmalarida partitura yozuvlari tahlili.
23.Zamonaviy o‘zbek kompozitori F. Alimovning yangi xor asarlarida ovoz partiyalarining guruhlanishining o‘ziga xos xususiyatlari.

## X. Adabiyotlar ro‘yxati

1. Azimov M.,Xublarov R. ” O‘rta Osiyo va Qozog‘iston kompozitorlarining xor patituralarini o‘qish xrestomatiyasi” (T., 1983);
2. Shamaxmudova B “Xor lug‘ati. Xorovoy slovar” (T.2009)
3. “O‘zbekiston-vatanim manim” (qo‘shiqlar to‘plami) . Toshkent 1995, 1997.
4. Kaziyev N. “Xrestomatiya po dirijirovaniyu xorom” 3 kism - T. , 1977.
5. Shukurov J. “Dirijyorlik” tuplami, T., 2006
**6.** “O‘zbekiston – Vatanim manim” to‘plami (4- kitob),T.2000., 36 b.
**7.** Kaziyev N.I. ” Xrestomatiya po Dirijirovaniyu xorom”, ch.2, T., 1976
8. N.Sharafiyeva. “Xor sinfi”, Musiqa T.2005y.

## XI. Horijiy manbalar

1. Полтавцев И.,Светазаров М.”Чтение хоровых партитур”(М.,1958,1964);
2. Шелков Н.”Хрестоматия по чтению хоровых партитур”(Л.1963);
3. Тевлин Б.”Хрестоматия по чтению хоровых партитур”( М,,1975-81,1-2кк);
3. Качалина О. Г**.** Чтение хоровых партитур(учебно-методический комплекс), Пермь,2009.

## XII. O’quv materiallari

# O'ynasin yor

B.Umidjonov aralash xor
uchun qayta ishlagan

**Harakatchan, sho'x**




1


Jo - nim o'y - nang! Ay - nay - di - gan
Yo - rim o'y nang!
yo - rim - ni jon! Yo - rim de - ma - sam - mi - kan?!
1.
2.
Yo - rim de - ma - sam - mi - kan?! U yo - ni - ga tay - lang,
o'y - na - sin yor, Bu yo - ni - ga tay - lang o'y - na - sin yor,
U yo - ni - ga tay - lang, o'y - na - sin yor, bu yo - ni - ga tay - lang, o'y na - sin

# Duxtari saman
(shiru shakar)



# Булбул келиб сайрасин

Халқ сўзи
Б.Умиджонов мусиқаси

**Шошилмасдан, куйчан**



# Яллама ёрим

Ўзбек халқ қўшиғи
Хор учун Ж.Шукуров мослаштирган

**Moderato**









# Рубоий

(Жўрсиз аёллар хори учун)

Х.Деҳлавий ғазали
Б.Умиджонов мусиқаси

**Шиддат билан**



# Diyorim o'lkam

O'tkir Rashid so'zi
Hamid Raximov musiqasi

Sh. Yormatov yoshlar
xoriga moslashtirgan

**Allegro moderato**




Men sen - ga xush - tor
Men sen - ga xush - tor
Bo - g'i ba - hor - rim o'l - kam
o'l kam
Kez - ma - sam bir - dam
Kez - ma - sam bir - dam



Bag' - ring cha- man zo - ring - ni
cha man zo- ring - ni
(A)
Bo' lur - man xu-mor
Bo' lur - man xu-mor
Qalb - da vi - qo rim O'l - kam
O'l kam


Yo - ru di - yo - rim o'l - kam
O'l - kam, o'l — kam
Men sen - ga xush - tor Men sen - ga xush - tor
Bo - g'i ba - ho - rim o'l - kam

# Ҳунарманд ёшлар мадҳияси

Қўлдош Маъмуров мусиқаси ва шеъри




қуд-рат-ла-ри-миз,
Ва-тан ку-тар, саф-дош
дўс-тим, ёдда тут
Биз ворис ав-лод-нинг
аж-дод-ла-ри-миз,
Ўл-кам ке-ла - жа-ги
бу-юк о - на юрт!
ку-тар ке-ла - жа-ги
бу-юк о- на юрт!
Биз аж-дод-нинг во-рис
ав-лод - ла-ри - миз,
Ўл-кам ке-ла-жа-ги
бу-юк о - на юрт!

# Айтинг гуллар

(Яккахон ва хотин-қизлар хори учун)

Туроб Тўла сўзи
Манас Левиев мусиқаси
Хор учун Ж.Шукуров мослаштирган

**Moderato**




Coro:
ва-фо са-до қа-тим - ни
ай-тинг гул - лар
жон бул-бул - лар
ё -рим-га ва-фо
жа-со - ра-тим - ни.
Solo:
ай-тинг гул-
лар
ай-тинг гул - лар
Tutti:
ай-тинг гул - лар

# Ҳай ёр - ёр

Ўзбек халқ қўшиғи
Хор учун Б.Умиджонов мослаштирган
Партитура овозларини талабалар учун
Ж.Шукуров соддалаштирган

**Шўх ва тез**



# Озод Ватан - обод Ватан

(Болалар хори учун)

Н.Нарзуллаев шеъри
Ф.Алимов мусиқаси

**Жадал**




Ду-нё би-лар
аж-до - ди-миз, А-мир Те-мур ав-ло - ди-миз, то-тув я -шаш му-ро - ди-миз,
Биз-дан қо-лур о-зод Ва-тан, биз-дан қо-лур о-бод Ва - тан!
Биз-дан қо-лур о-зод Ва-тан, биз-дан қо-лур о-бод Ва-тан!
биз-дан қо-лур о - зод Ва - тан!
sff

# Етти қиз

П.Мўмин шеъри
А.Мухамедов мусиқаси




unis.
бўл-ди до-им пай-вас - та,
бўл-ди до-им пай-вас -
1.
2.
та.
та.
f
unis.
Қа-рар ҳам-ма ҳа-вас - да,
poco morendo
қа - рар ҳам - ма ҳа - вас - да.
pp

# HARBIY O'G'LONLAR

(erkaklar xori, solist va fortepiano uchun)

*A. Mallaboyev musiqasi*
*F. Bobojonova she'ri*




16
a-s(i)l ko - nim - san.
Sa - do - qat, a - hil - lik
mu - dom biz - ga yor,
19
Biz bor - ki mus - tah - kam
no - mus i - la or,
O - na yurt, yash - na gin,
22
Za - bar - dast, pah - la - von
pol - von - la - ring bor.
tin - ching as - rov - chi,


25
ff
Biz-Va-tan deb yon-gan so diq qo‘r-g‘on-lar, Yurt u-chun yu - ra gi
f
28
ko‘k-si qal-qon-lar
Shu di yor shu el-ning far zand-la - ri- miz,

4




Vatan - muhabba
Onamsan - muqa
Bobolar maskani,
Halollik, poklikka

Sadoqat, ahillik n
Biz bor-ki, musta
Ona yurt, yashna
Zabardast, pahlav

Naqarot:

Biz - Vatan deb y
Yurt uchun yurag
Shu diyor, shu eln
Sarhadlar posbon

Hurlikning garovi
Iymondir, insofdi
Saqlasak sofliknu
Dillarda manguga

Baxtimiz - bobola
Momolar duosi, a
Eng oliy saodat -
Tug'ilgan go'dak

Naqarot:

Biz -Vatan deb y
Yurt uchun yurag
Shu diyor, shu eln
Sarhadlar posbon



# ONAMSAN SEN

(tenor va soprano ovozlari uchun duet)

*A. Mallaboyev musiqasi*
*Z. Ro'ziyeva she'ri*




13
nur e lak dan
A sta A sta
ya shil rang lar
16
e lar ko'k lam
ko'k lam bi lan
19
ko' rish gan yurt
biz ning Va tan
ya shil bog' lar
22
dar - vesh qil - gan
xu - mo - ri xush.
Av - li - yo - lar


13
arsh - ga yet - gay,
Jo - nim Va - tan,
o - nam - san sen,
16
O‘g‘il bola
bo - lang - man men.
Bu mas - kan - ning
19
raf - to - ri xush,
i - fo - ri xush,
O - lis ket - sang
22
dar - vesh qil - gan
xu - mo - ri xush.
Av - li - yo - lar




Yuragimning sara gulin senga tutay,
Gardlaringni kiprigimda artib oʻtay.
Isming aytsam ruhim baland - arshga yetgay,
Jonim Vatan, onamsan sen, bolangman men.

Bu maskanning raftori xush, ifori xush,
Olis ketsang darvesh qilgan xumori xush.
Avliyolar bosgan tuproq, tumori xush,
Jonim Vatan, onamsan sen, bolangman men.

Varaqlasam shajaramda pirlar koʻpdir,
Kalidi ishq boʻlgan sehr, sirlar koʻpdir,
Yogʻiga tiz bukmagan botirlar koʻpdir,
Jonim Vatan, onamsan sen, bolangman men.

Nasabamni soʻradilar, oʻzbek dedim,
Ardoqlagan mulk, boyligim chin erk dedim.
Navoiydan chehramdagi nur, koʻrk dedim,
Jonim Vatan, onamsan sen, bolangman men.

Dilimsan-ku, sen oq desang teng aytayin,
Malham boʻlay Xazrat yozgan xushbaytdayin.
Qutlugʻ qadam bogʻlaringni kengaytayin,
Jonim Vatan, onamsan sen, bolangman men.

# SHODIYONA

(tenor va soprano ovozi uchun)

*A. Mallaboyev musiqasi*
*I. Jiyanov she'ri*




30
lar sho'x say-ra-sin, Bag'-ring-da o'y-nab ku-
36
lib o'-g'il qiz-lar yay-ra-sin. O-lam-
42
da no-ming u-lug', har ku-ning bo'l-sin qut-
48
lug', Tinch o-bod yurt jo-na-jon, ey go'-


54
zal O‘z - be - kis - ton.
60
65
a tempo
rit.
O -
70
O -
O -


76
82
Al - po - mish o‘g‘-
87
lon - la - ring zo‘r qa - not pos - bon - la - ring,
93
Ko‘k - si - ni qal - qon e - tib qo‘ - riq - lar sar -


99
had - la - ring. Qo‘-riq - lar sar - had - la - ring.
105
O - na - lar al - la - si - da ya - sha - gan ka - bi bu
112
Ru - hi - miz sen - la te - tik bor bo‘l-
118
gin O‘z - be - kis - ton. Cha - man - zor bog‘ - la - ring-


124
da bul-bul-lar sho‘x say-ra-sin, Bag‘-ring-
130
da o‘y-nab ku-lib o‘-g‘il-qiz-lar yay-ra
136
sin. Ey go‘-zal O‘z-be-kis-ton,
Bor bo‘l-gin
142
Jon.

7




Chamanzor bog‘laringda bulbullar sho‘x sayrasin,
Bag‘ringda o‘ynab kulib o‘g‘il qizlar yayrasin.
Olamda noming ulug‘, har kuning bo‘lsin qutlug‘,
Tinch obod yurt jonajon, ey go‘zal O‘zbekiston.

Alpomish o‘g‘lonlaring zo‘qanot posbonlaring,
Ko‘ksini qalqon etib qo‘riqlar sarhadlaring.
Onalar allasida yashagan kabi bu shon,
Ruhimiz senga tetik bor bo‘lgin O‘zbekiston.

Chamanzor bog‘laringda bulbullar sho‘x sayrasin,
Bag‘ringda o‘ynab kulib o‘g‘il qizlar yayrasin.
Ey go‘zal O‘zbekiston, bor bo‘lgin O‘zbekiston.

# VATAN BIZDADIR

(ovoz va fortepiano uchun)

*A. Mallaboyev musiqasi*
*B. Bobomurod she'ri*




15
Biz Va-tan-da,Va-tan biz-da dir.
Biz Va-tan-da,Va tan biz-da
18
dir.
O-na-jon-lar ayt-sin-lar al-la,
21
Jo-na-jon-lar bosh-lay-lik yal-la.
Qo‘ shi-g‘i-miz en-di ba-ral
24
la,
Biz Va-tan-da Va-tan biz-da-dir.


27
Biz Va - tan - da Va - tan biz - da - dir.
mf
f
30
O‘z yur - ti - ga sig‘ - ma - di kim lar,
33
G‘ur - bat - lar - da o‘t - ma - di kim lar.
Biz - ni bu - yuk ke - la - jak ish
36
lar,
Biz Va - tan - da Va - tan biz - da - dir.
O -


39
42
tr
mf
p
mp
46
Ta - ri - xi - ga ra - qam - lar o‘ - yib,
48
Ba - ra - ka - li qa - dam - lar qo‘ - yib.


50
Hur ya - shay - miz meh - ri - ga to'- yib,
52
Biz Va - tan - da Va - tan biz - da - dir.
54
Biz Va - tan - da Va - tan biz - da - dir!
mf
56
f
f
mf
p

# VATANNI MUQADDAS BIL

(bariton, metstso soprano va fortepiano uchun)

*A. Mallaboyev musiqasi*
*J. Abduvohidov she'ri*




16
bur - ching - ni mu - qad - das bil. Ko‘p za - mon - lar a - zo - bi - ni
19
av - lod ko‘r - di, sen ko‘r - ma. G‘u - ru - ri poy - mol bo‘l - di,
22
av - lod ko‘r - di sen ko‘r - ma.
f
Sez - ma - di - lar
25
tu - zoq - ni av - lod ko‘r - di sen ko‘r - ma.


28
Qo‘l - dan ber - ma er - king - ni, bur - ching - ni mu - qad - das bil.
mf
tr
31
A - ziz bosh - lar ho - ki bu yur - ting - ni mu - qad - das bil.
tr
34
p Oq sut be - rib o‘s - tir - gan O - nang - ni mu - qad - das
37
bil.
p Bir yos - tiq - qa bosh qo‘y - gan yo - ring - ni mu - qad - das


40
bil.
Is - tiq - lol - ga qo‘l ber - gan do‘s - ting - ni mu - qad - das
mf
43
bil.
Maq - sa - ding bu - yuk av - lod bur - ching - ni mu - qad - das
46
bil.
Bir ta - nu bir jon bo‘ - lib Is - tiq - lol - ni a - vay -
f
49
- la,
Man - zil sa - ri ye - tak - lab, is - tiq - lol - ni a - vay -
f


52
-la.
Mus - ta - qil - lik gash - ti - ni
en - di sur - gin a - vay -
55
-la.
Qo‘l - dan ber - ma er - king - ni
bur - ching - ni mu - qad - das
58
bil.
Maq - sa - ding bu - yuk av - lod
bur - ching - ni mu - qad - das
61
bil.
Ey Vo - hi - diy u - mir - bod
Va - tan - nimu qad - das

6




Allomalar yurti bu, Vatanni muqaddas bil,
Aziz boshlar hoki bu, tuproqni muqaddas bil.
Bobolaring yaratgan bog‘larni muqaddas bil,
Shunda xalqing ardoqlar burchingni muqaddas bil.

Ko‘p zamonlar azobini avlod ko‘rdi, sen ko‘rma,
G‘ururing poymol bo‘ldi, avlod ko‘rdi, sen ko‘rma.
Sezmadilar tuzoqni avlod ko‘rdi, sen ko‘rma,
Qo‘ldan berma erkingni, burchingni muqaddas bil,
Aziz boshlar hoki bu, tuproqni muqaddas bil.

Oq sut berib o‘stirgan onangni muqaddas bil,
Bir yostiqqa bosh qo‘ygan yoringni muqaddas bil.
Istiqlolga qo‘l bergan do‘stingni muqaddas bil,
Maqsading buyuk avlod burchingni muqaddas bil.

Bir tahu jon bo‘lib, istiqlolni avayla,
Manzil sari yetaklab, istiqlolni avayla.
Mustaqillik gashtini, endi surgin avayla,
Qo‘ldan berma erkingni, burchingni muqaddas bil,
Ey Vohidiy umrbod Vatanni muqaddas bil.

# ONA EL MADHI

(bariton ovozi, xor va fortepiano uchun)

*A. Mallaboyev musiqasi*
*Hazarmat she'ri*




14
Er - king deb te - pa - di qalb - lar er - ta kech, Se - ni o'z - ga - lar - ga
17
i - shon - may - miz hech. O - na el o'z - be - gim
20
far - zand - la - ring - miz, Er - king - ga fi - do - iy pos - bon - la - ring - miz.


23
ff
O-na el o‘z-be-gim far-zand-la-ring-miz, Er-king-ga fi-do-iy
26
pos-bon-la-ring-miz.


28
pos - bon - la - ring miz.
Jon.

# ONA YURT TARONASI

(xor, solist va fortepiano uchun)

*A. Mallaboyev musiqasi*
*I. Rahmon she'ri*




13
ko‘z-ga to‘-ti-yo.
16
Bu o-zod Va-tan-dir, Jan-nat ma-kon
19
dir, o O-si-yo-ning mash’-a-li
22
hur O‘z-be-kis-ton-dir. Far-zan-ding e-kan




Boqqanda bag‘rim o‘ygan,
Cho‘g‘idan kuygan ko‘ksim,
Jonimni olib qo‘ygan,
Ko‘zlaring yodimdadir,
Ko‘zlaring yodimdadir!

Oyni ham shaydo etgan,
Shohni ham gado etgan,
Kulgichi ado etgan,
Yuzlaring yodimdadir,
Yuzlaring yodimdadir!

Sog‘insam dardim olgan,
Termulib ko‘zim tolgan,
Qorlar qo‘ynida qolgan,
Izlaring yodimdadir,
Izlaring yodimdadir!

Muhabbat og‘u ekan,
Qo‘l yetmas ohu ekan,
"Sevaman jonim" degan
So‘zlaring yodimdadir,
So‘zlaring yodimdadir!

# QARAQALPAQSTAN BUL

(tenor va fortepiano uchun)

*A. Mallaboyev musiqasi*
*T. Qabulov she'ri*




34
bul, Qa - ra - qal pa - qis - tan bul. Dan - ky til - de
41
das - tan bul Qa - ra - qal - pa - qis - tan bul.
tr
47
Jan - A - la -
f
53
tau - day sal - ma - g‘y bar, O - ner - li on bar - ma -


59
g‘y bar,- A - ji - ni - yaz ham Ber - da - g‘y bar. Til - de
65
dur - ler shash - qan bul, Qa - ra - qal - pa - qis - tan
71
bul. Til - de dur - ler shash qan bul, Qa - ra - qal - pa -
78
qis - tan bul.


59
g‘y bar,- A - ji - ni - yaz ham Ber - da - g‘y bar. Til - de
65
dur - ler shash - qan bul, Qa - ra - qal - pa - qis - tan
71
bul. Til - de dur - ler shash qan bul, Qa - ra - qal - pa -
78
qis - tan bul.


114
Qa - ra - qal - pa - qis - tan bul. No - kis me - hir gi - ya - si
121
bar, Tash - kent - tey ser qu - ya - shy bar, Dos - lyk
127
geo - gra - fi - ya - sy bar. Jan - net ja - ne bo‘s - tan
133
bul, Qa - ra - qal - pa - qis - tan bul. Jan - net ja - ne




Bir o‘lke bar baxty balent,
Adamlari ak ko‘krek,
Mart jauynger ham san jurek.
Danky tilde dastan bul,
Qaraqalpaqstan bul.

Alatauday salmag‘y bar,
Onerli on barmag‘y bar,
Ajiniyaz ham Berdag‘y bar.
Tilde durler shashkan bul,
Qaraqalpaqstan bul.

O‘zbek oning o‘z ag‘asy,
Altyn gumis bosag‘asy,
Kunnen kunge jasarady.
Guneshadan gil shashkan bul,
Qaraqalpaqstan bul.

Nokis mehir g‘iyasy bar,
Tashkenttey ser quyashy bar,
Dosluk geografiyasiy bar.
Jannet jane bo‘stan bul,
Qaraqalpaqstan bul.

# SADOQAT MARSHI

(ovoz va fortepiano uchun)

*A. Mallaboyev musiqasi*
*I. Rahmon she'ri*




13
dir, Biz - ga mard - lik ja - so - rat!
16
O‘z bur - chi - ga e - li - ga, Mu - hab - ba - tu sa - do -
19
1.
2.
qat!
qat!
22
Mehr, va fo bel - bo - g‘in Mah - kam bog‘ - la be - ling


25
ga!
Qah - ra - mon - lar sin - ga - ri
28
1.
Jon fi - do qil e - ling - ga!
3
30
2.
ga!
ga!

# O‘ZBEKISTON

(tenor, soprano ovozi va fortepiano uchun)

*A. Mallaboyev musiqasi*
*X. Nuriddinov so‘zi*




14
bob,
Meh - va - ping - dan ay - la - nur dun
16
yo.
Meh - va - ring - dan ay - la - nur dun yo.
19
Of - tob mi - sol ish - qim to - ji - san,
Id - ro - kim - ning sul - to - ni o‘
22
zing.
Baxt ba - ho - rin qal - dir - g‘o - chi - san,


25
El xu - mo - sin os - mo - ni o‘ zing. O‘z - be - kis - ton,
28
Va - ta - nim, O - nam, Adl tur - gin, bil - ma - gin qay - g‘u
31
Far - zand - la - ring yo - ning - da har dam,
34
Yo‘ - l - la - ri - ga sen o‘ - zing yog‘ - du. Yo‘ - lla - ri - ga sen o‘ - zing yog‘

4




Tojday porlar boshingda oftob,
Olam olar mehringdan ziyo.
Qulog‘ingdir seryulduz xubob,
Mehvaringdan aylanur dunyo.
Oftob misol ishqim tojisan,
Idrokimning sultoni o‘zing.
Baxt bahorim qaldirg‘ochisan,
El xumosin osmoni o‘zing.

Naqarot:
O‘zbekiston, Vatanim, onam,
Adl turgin, bilmagin qayg‘u.
Farzandlaring yoningda har dam,
Yo‘llariga sen o‘zing yog‘du.

Har mushkulga topilgay iloj,
Gar borlik bor, yo‘qlik yo‘li berk.
Mustaqillik kiydirgan gultoj,
Iforidan barq urgaydir erk.

Tojday porlar boshingda oftob,
Olam olar mehringdan ziyo.
Qulog‘ingdir seryulduz xubob,
Mehvaringdan aylanur dunyo.

Naqarot.